

YOSHLAR ONGIDA VATANPARVARLIK TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISHDA MEDIA VOSITALARNING O‘RNI

Tursunaliyeva Shaxloxon Komiljonovna

Annotatsiya; Ushbu maqolada yoshlar ongida vatanparvarlik tushunchasini shakllantirishda media vositalarining ijtimoiy-pedagogik roli tahlil etilgan. Televizion, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlar orqali yosh avlodga milliy g‘urur, tarixiy xotira, fuqarolik mas’uliyati kabi tushunchalarni singdirish mexanizmlari ochib berilgan. Interaktiv media mahsulotlar, bloglar, hujjatli filmlar va yoshlar ishtirokidagi onlayn loyihalar orqali vatanparvarlik g‘oyasini shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar; vatanparvarlik, media vositalar, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy ong, milliy qadriyatlar, kontent tahlili, ijtimoiy tarmoqlar, axborot madaniyati.

Аннотация; В этой статье анализируется социальная и педагогическая роль медиа -инструментов в формировании концепции патриотизма в умах молодежи. Благодаря контенту по телевидению, интернету и социальным сетям механизмы подстрекательства к таким концепциям, как национальная гордость, историческая ответственность и механизмы подстрекательства к таким концепциям, как национальные обязанности. Возможности сформировать идею патриотизма с помощью интерактивных медиа -продуктов, блогов, документальных фильмов и молодых людей.

Ключевые слова; Патриотические, медиа -инструменты, показатели молодежи, общественное сознание, национальные ценности, анализ контента, социальные сети, информационная культура, информация

Bugungi globallashuv va tezkor axborot oqimi davrida yoshlar ongini shakllantirishda media vositalarining o‘rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, vatanparvarlik, fuqarolik pozitsiyasi, milliy g‘urur kabi tushunchalarni yosh avlod qalbiga singdirishda ommaviy axborot vositalari kuchli ijtimoiy-pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Televizion ko‘rsatuvlar, hujjatli filmlar, internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar, blog va podkastlar orqali berilayotgan ma’lumotlar yoshlarning ijtimoiy ongi, qarashlari va qadriyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Vatanparvarlik — bu shunchaki shior emas, balki chuqur ijtimoiy-psixologik tushuncha bo‘lib, unda shaxsning yurtiga sadoqat, tarix va madaniyatga hurmat, xalq manfaatlarini o‘z manfaatidan ustun qo‘yish kabi tamoyillar mujassam. Bu tuyg‘uni yoshlar qalbida shakllantirishda oila va maktab bilan bir qatorda media muhitning ham roli beqiyos. Aynan media vositalari yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy faolligiga ta’sir o‘tkaza oladigan eng ommaviy platforma hisoblanadi.

Zamonaviy media ayni paytda ikki yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, u xolis va maqsadli ishlatilganda, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuchli vositaga aylanadi.

Masalan, tarixiy shaxslar hayoti, buyuk ajdodlarimizning jasorati, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shgan olim va san‘atkorlar haqida berilgan videolar, maqolalar yoki hujjatli filmlar yoshlarning vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytiradi. Ayniqsa, O‘zbekiston tarixida muhim o‘rin tutgan mustaqillik, istiqlool yillari yutuqlari, milliy g‘oya va qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi media mahsulotlar orqali yoshlarda o‘zlikni anglash va faxr tuyg‘usi shakllanadi.

Ikkinchidan, media vositalari noto‘g‘ri ishlatilganda yoki tashqi manbalardan kelayotgan, milliylikdan yiroq axborotlar ustun bo‘lsa, bu yoshlar ongi uchun xavf tug‘diradi. Shuning uchun vatanparvarlik mazmunidagi kontentni ko‘paytirish, milliy qadriyat va urf-odatlar asosida ishlab chiqilgan ijtimoiy media loyihalarni yaratish muhimdir. Bugun TikTok, YouTube, Instagram kabi tarmoqlarda yoshlar orasida mashhur bo‘lgan kontent yaratuvchilar aynan shu yo‘nalishda faoliyat yuritisa, bu media orqali ijobiy ijtimoiy transformatsiyani amalga oshirishga xizmat qiladi.

Media vositalari orqali yoshlar nafaqat axborot oladi, balki o‘z munosabatini bildiradi, jamiyatda dolzarb masalalar bo‘yicha fikr yuritadi, muhokamalarda qatnashadi. Bu esa ularni passiv iste‘molchidan faol fuqaroga aylantiradi. Shu sababli vatanparvarlikni shakllantirishda faqat tayyor axborot berish emas, balki yoshlarni ishtirok etuvchi, o‘z g‘oyalarini ifodalovchi, ijodiy kontentlar yaratishga chorlovchi interaktiv media loyihalar muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa, ta‘lim muassasalarida mediamadaniyatni rivojlantirish orqali, o‘quvchilarni tanqidiy fikrlovchi, analitik mulohaza yurita oladigan shaxs sifatida tarbiyalash orqali media vositalaridan samarali foydalanishga o‘rgatish zarur. Shunda media orqali faqat xabar olish emas, balki milliylikni anglash, o‘z tarixiga hurmat, hozirgi zamonga mas‘uliyat bilan qarash, kelajakka ishonch bilan intilish kabi fazilatlar shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar ongida vatanparvarlikni shakllantirishda media vositalari kuchli tarbiyaviy va mafkuraviy ta‘sirga ega. Ularni mazmunli, milliy qadriyatlarga tayanadigan, yoshlar bilan muloqotga kirishuvchi shaklda ishlatish zarur. Shu yo‘lda davlat va jamoatchilik tashkilotlari, pedagoglar va kontent yaratuvchilar bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilgandagina, bu yo‘nalishdagi media siyosat kutilgan natijani beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Taxonomy of Educational Objectives, Handbook 1: Cognitive Domain 2nd edition Edition, Benjamin S. Bloom
2. Zunnunov A. Hotamov N. Adabiyot o'qitish metodikasi. T., 1992
3. Dolimov S. Ubaydullayev H. Adabiyot o'qitish metodikasi. T., 1967
4. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T., 1996